

**SAMARQANDNING TOG‘ VA YAYLOV HUDUDLARIDA  
UCHROVCHI ASALCHIL O‘SIMLIKLAR**

***Annotatsiya:** mazkur maqolada Samarqand viloyatining tog‘ va yaylov mintaqalarida tarqalgan asalchil o‘simliklarining asal berish darajasi, o‘simlikning botanik tavsifi, xususiyatlari, ushbu o‘simliklarning asalchilik darajasini aniqlash usullari, hamda tadqiqot natijasi, tegishli xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Flora, asalchil, cho‘l asali, o‘rmon asali, gul shirasi, nektar, tog‘ rayhon, kiyik o‘ti, oqquray, kovul, burchoq, qashqarbeda.*

*Turniyozova Nargiza Raxmatovna  
Uzbek-Finnish pedagogical institute*

**TRIPLE HONEY PLANTS IN THE MOUNTAIN AND PASTURE  
REGIONS OF SAMARKAND**

***Abstract:** this article presents the level of honey production of honey plants distributed in the mountain and pasture regions of Samarkand region, the botanical description and characteristics of the plant, the methods of determining the level of honey of these plants, as well as the research results and relevant conclusions.*

***Key words:** Flora, asalchil, desert honey, forest honey, flower nectar, nectar, tograyhon, deer grass, aqquray, kovul, burchak, kashqarbeda.*

**Kirish.** O‘zbekiston o‘ziga xos tabiati va turli ekologik shart sharoitlari bilan O‘rta Osiyoda alohida ahamiyatga ega hududi hisoblanadi. Turli ekologik muhitlar deganda biz asosan iqlimi, tuprog‘i va relyefi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi hududlarni nazarda tutamiz [6]. Ekologik nuqtayi nazardan cho‘l, adir, tog‘ va yaylov mintaqalarining o‘simliklari ham o‘ziga xos bioekologik xususiyatlarga ega. Samarqand florasida 598 turkum, 103 oila 1715 tur o‘simlik uchrab, ular nafaqat bo‘yi, barg va gullari, balki ularning biokimyoviy va fiziologik xususiyatlari ham ekologik muhitga moslashgan bo‘ladi. Shuningdek asalshirali o‘simliklarning bioekologik xususiyatlari ham ekologik muhit sharoitlaridan kelib chiqib bir biridan farq qiladi. Xalq orasida “tog‘ asali”,

“cho‘l asali”, “o‘rmon asali” kabi iboralarning mazmun mohiyati ham o‘simliklarning bioekologik xususiyatlarini belgilaydi [3].

**Metodlar.** O‘simlikning asal shiraga boy ekanligi kuzatish usuli orqali aniqlandi. O‘simliklardan qaysi biri asalarilarni o‘ziga jalb qilayotganligini bilish uchun asalarilarni hisoblash usulidan foydalanildi. Kun davomida asalarilarning yig‘gan asali miqdorini hisoblash uchun asalarilar joylashgan uyani tortib ko‘rish usulidan foydalanildi. Har bir o‘simlik gulidagi shira miqdori naycha usuli orqali aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari.** Tog‘, yaylov va o‘tloqlarda asosan tabiiy o‘simlik jamoalari hukmronlik qiladi. Tabiiy hududlarda yetishtirilgan asal har tomonlama ekologik toza va sof asal sifatida tan olinadi. Chunki bu hududlar kimyoviy o‘g‘itlar va boshqa bir qator sun‘iy vositalar yordamida muhofaza qilinmaydi.

*Shirach, eremurus.* O‘zbekistonda eng ko‘p tarqalgan va eng muhim bo‘lgan asalshirali o‘simliklardan hisoblanadi. Respublikamizda uning 20 ga yaqin turi uchraydi. Regel shirachi, So‘g‘d shirachi, Oloy shirachi kabilar tog‘li va yaylovlarda ko‘p tarqalgan. Uning gullashi may boshlaridan boshlanib, to iyul oxirigacha davom etadi. Bir o‘simlikning gullash davri 15 - 20, shira ajratish 2 - 3 kun davom etadi. Gulning shira tarkibidagi 0,22 mg glyukoza va 0,11 mg saxaroza bor. Bo‘stonliq tumanida olib qaralganda bir tup o‘simlikda 366 tagacha gul bo‘ladi. Qalin shirachizorlarda esa uning tup soni gektariga 50 mingtagacha yetadi. Shunday maydonlarda shirach o‘simligining shira miqdori gektariga 16 - 20 kg ga to‘g‘ri keladi. Shirachning gul tuzilishi asalarilar gulshira olishi uchun juda ham qulay.

*Kiyik o‘ti.* Kiyik o‘ti ham tog‘ va yaylovlarda keng tarqalgan, asosiy asalshirali o‘simliklardan biridir. Kiyik o‘ti respublikamizdagina emas, balki qo‘shni respublikalarda ham eng yaxshi eng, shirali o‘simliklardan hisoblanadi. Ba‘zi tog‘li tumanlarda katta maydonlarni tashkil qiladi. Kiyik o‘ti asosan, iyunning oxirlaridan boshlab to sentyabr boshlarigacha gullaydi. Gulning shira miqdori 0,11 ml., shakar moddasi esa shiraning 50 % ini tashkil qiladi. Qalin

oʻsadigan maydonlarda shirasi gektariga 105 kilogrammni tashkil qiladi. Kiyik oʻti oʻsadigan maydonlarni kengaytirish va uni madaniy holda foydalanishni yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq.

*Qashqarbeda.* Eng koʻp tarqalgan turlariga sariq guli ikki yillik, oq guli bir yillik va koʻp yillik turlari kiradi. Qolgan turlari uncha koʻp tarqalmagan va ular uncha «yuqori hosilli» emas. Respublikada koʻp tarqalgani va ahamiyatlisi sariq guli ikki yillik turidir (qashqarbeda deb, koʻpincha shu turiga aytiladi). Qashqarbeda respublikamizning koʻp tumanlarida ekiladi. Bizning qoʻshni respublikalar - Qirgʻiziston va Qozogʻistonda ham ekilmoqda. Qashqarbeda ekilgan maydonlarning har bir gektaridan 250 - 300 kilogramm gulshira olish mumkin. Qashqarbeda urugʻini togʻli tumanlarga, togʻ yonbagʻirlariga, daraxt va butazorlarning oralariga ham sepish mumkin. Urugʻi yaxshi haydalgan va tekislangan joylarga ekiladi. Urugʻni 1-2 santimetr chuqurlikka sepiladi. Urugʻ 60 - 70 santimetrli egatlar olib ekilsa, yaxshi boʻladi. Har bir gektar hisobiga 20 - 24 kilogramm urugʻ ketadi. Urugʻning tuproqdan unib chiqishi 55 - 60 %. Urugʻ oktyabr oyining oxirlari va noyabr oyining boshlarida ekiladi. Urugʻ bahorda, yaʼni may oyining boshlarida unib chiqa boshlaydi [2,5].

Qashqarbeda, odatda ikki yillik boʻlgani uchun birinchi yili faqatgina bitta poya chiqarib 90-100 santimetr boʻladi. Birinchi yili ob-havo va tuproq sharoitini hisobga olgan holda 2 - 3 marta sugʻorib, egat oralari yumshatilsa ular yaxshi oʻsadi. Ikkinchi erta bahordan oʻsa boshlaydi, yoz oylariga borib ularning boʻyi 200 - 250 sm va hatto undan ham baland boʻlib, juda koʻp gul hosil qiladi. Bedaning gullashi iyun oyining birinchi besh kunligidan boshlanib 20 - 25 kun davom etadi. Urugʻi iyul - avgust oylarida pishib yetiladi. Urugʻi pishgan paytni kuzatib turib, uni darrov terib olinmasa yerga toʻkilib ketadi. Uning har bir guli 0,16 mg shira ajratadi, shakar moddasi esa shiraning 50 % ni tashkil qiladi. Maʼlumotlar boʻyicha har bir gektar qashqarbedadan 400 kg gulshirasi, 200 kg asal olish mumkin. Bundan tashqari qashqarbedani birinchi ikkinchi yili (gullab boʻlgandan keyin) urib olib, uni hayvonlarga berish mumkin. Qashqarbeda

xashagining (ho‘l holda) miqdori bizda ekilayotgan madaniy yung‘ichkanikicha va undan ham ortiq bo‘ladi.

*Burchoq.* Burchoq avlodiga bir yillik va ko‘p yillik o‘tchil o‘simliklar kirib, bular ham qashqarbedaga o‘xshash burchoqdoshlar oilasiga mansubdir. Burchoqning eng keng tarqalgani yupqa bargli turidir. U yovvoyi holda tog‘li tumanlarda, keng bargli o‘rmon va archazorlarda ko‘p uchraydi. Bu o‘simlik qashqarbedaga o‘xshab chorva mollari uchun ham qimmatli ozuqabop hisoblanadi. Bu turni ham tog‘li tumanlarda ekib o‘stirish mumkin. Burchoqning unib chiqishida uning urug‘larini to‘liq va yaxshi pishib etilgan bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Burchoqni yaxshi haydalgan va tekislangan yerga ekish kerak. Urug‘ni oktyabr - noyabr oylarida 2 - sm chuqurlikda ekish kerak. Birinchi yili 20 - 30 sm bo‘ladi. Kuzda -birinchi yiliyoq uni o‘rib, chorva mollariga berish lozim. Ikkinchi va uchinchi yillari o‘simlik to‘liq etiladi va ko‘plab gul hosil qiladi, may oyining birinchi o‘n kunligidan gullay boshlaydi. Uning qiyg‘os gullash davri 20 - 25 kun va shu davr mobaynida asalarilarga ko‘plab gulshira beradi. Burchoq iyunning o‘rtalarigacha gullaydi, iyul -avgust oylarida urug‘lari pishadi. Burchoq ham yozgi vegetatsiya davrida 2 - 3 marta sug‘orilib, taglari yumshatilsa uning massasi ortadi va gullari ko‘payadi, gullash davri ancha uzoqqa cho‘ziladi.

1-jadval

№	Turning nomi	Bir gul hisobiga nektar miqdori (mg)	Nektar konsentratsiyasi. (%)	Gektar hisobiga nektar miqdori (kg/ga)
1	Tog‘rayxon	0,15 mg	40-41	147
2	Kiyik o‘ti	0,11 mg	49-50	105
3	Arslonquyruq	0,67 mg	63-65	178
4	Burchoq	0,28 mg.	40-41	150
5	Kovul	36 -37 mg	99-100	450
6	Oqquray	0,15 mg	62	203
7	Qashqarbeda	0,16 mg	50	150
8	Xo‘kiz tili	1,43 mg	40	148

Burchoqning bir guli hisobiga shirasi 0,22 mg, shakar moddasi gulshiraning 41% ni tashkil qiladi. Gektar boshiga 144 kg gulshira beradi, asal hisobiga keltirsak bu raqam 70 kg ni tashkil qiladi. Ikkinchi va uchinchi yillari xar gektaridan 200 - 250 sentner ho‘l yoki 60 sentnergacha burchoq pichanini olish mumkin. Demak, bo‘sh yotgan va foydalanilmay kelayotgan tog‘li tumanlarga burchoq eksak asalarilarga etarli ozuqa tayyorlab bergan bo‘lamiz.

**Xulosa.** Asalchil o‘simlik turlarning gullashi asosan aprel oyida bo‘ladi. Gulshiradagi shakar moddasi har bir gul hisobiga 0,09 mg dan 0,13 mg gacha. Gektariga 15 - 20 kg nektarning shakar miqdori 32 - 35% ni tashkil qiladi. Jadvalda keltirilgan o‘simliklarning aksariyati ko‘p yillik bo‘lib, 7-8 yil o‘sadi. Bularning ichida faqatgina qashqarbeda va ko‘k o‘t ikki yillikdir. Qashqarbedani har yili urug‘idan olib ekish kerak. Boshqalari o‘z -o‘zidan o‘sib chiqaveradi. Demak, yuqorida keltirilgan o‘simliklarni ba’zi bir tog‘li tumanlardagi ishlatilmaydigan maydonlarga ekish tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidov A. O‘simliklar geografiyasi. Toshkent, 1995
2. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o‘simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 8-10.
3. K.Tojiboyev, N.Bushko, U.qodirov Samarqand viloyati o‘simliklar kadastri. Toshkent-2018 11-13 b.
4. Pratorov O‘., Shamsuvaliyeva L. va boshqalar. “Botanika” T.: “Ta’lim nashriyoti”, 2010.
5. Xurramov O. G., Islamov B. S. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING BA’ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
6. Xurramova N.X., Mirzaliyev S.R., Juraxujayev D.D. O‘RTA ZARAFSHON HAVZASI LANDSHAFTLARIGA ANTROPOGEN TA’SIR VA HAVZA LANDSHAFTLARINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI // Экономика и социум. 2023. №6-1 (109). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-zarafshon-havzasi-landshaftlariga-antropogen-ta-sir-va-havza-landshaftlarining-rivojlanish-qonuniyatlari> (дата обращения: 23.07.2024).